

Konstitutsiyada ayollarga berilgan imkoniyatlar



15.04.2023

Konstitutsiyada ayollarga berilgan imkoniyatlar

Ayollar haqida ko'p ulug' so'zlar aytildi. Ammo hayotda opa-singillarimiz shu ulug' so'zlardagi kabi e'zoz ko'rmoqdami? Konstitutsiyamizni sinchiklab o'qisangiz, ayollar qadr-qimmati, huquqlari himoyasi bo'yicha juda insoniy me'yorlar belgilangan. Bugun turmushda ular ro'yobga chiqmoqdam? Konstitutsiyamiz qabul qilingan kun arafasida bu kabi savollar haqida chuqur o'ylash ayni muddao bo'ladi. Chunki, hozirgi davrda xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish yana-da dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.



Ayniqsa, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy faolligini oshirish davr talabiga aylanmoqda. Bugungi "Yer resurslari va kadastr" fakulteti professor-ayol o'qituvchilari va talaba-qizlari o`rtasida Konstitutsiyada ayollarga berilgan imkoniyatlar to`g`risidagi tadbirda ham shu masalalar to`g`risida so`z bordi. Tadbirda M.Ulug`bek tumani Lashkarbegi mahallasi Xotin - qizlar masalalari bo'yicha maslahatchisi D.Otajonova so`zga chiqib, mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Ayollarning barcha sohalardagi samarali mehnati, ayniqsa, farzandlar tarbiyasi, oila hayotidagi ulkan xizmatlarini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 46-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekanliklari mustahkamlab qo'yilgan, davlatimiz Xotin-qizlarni kansitishning barcha shakllariga barham berish to`g`risidagi, Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to`g`risidagi, bir xil qiymatga ega bo'lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag'batlantirish to`g`risidagi konvensiyalarga qo'shilgan. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to`g`risida"gi qonunda davlat xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish chog'ida teng huquqlilikni, jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni kafolatlashi mustahkamlab qo'yildi. Xulosa o'rnida aytish kerakki, Konstitutsiyamizda belgilangan ayollarning haq-huquqlarini ro'yobga chiqarish, ularning qadr-qimmatini oshirish bo'yicha yuqorida quyigacha amaliy tizim yaratildi. Mana shu yangi tizim samarali ishlashi uchun hammamiz birgalikda harakat qilishimiz zarur. O`z raqslari bilan ishtirok etgan talaba-yoshlar tadbir o`zgacha shukuh bag`ishladi.

**"Yer resurslari va kadastr" fakultetining Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini
H.Eshova axboroti**